



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

Sanjar Baxronkulovich Boboqulov Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish	75
Фарангис Азамовна Ишанкулова Олий таълим хизматлари рақобатбардошлигига таъсир этувчи омилларнинг иқтисодий-математик модели	81
Севара Абдиназаровна Бабаназарова Таълим хизматлари тушунчаси ва уларнинг инсон ресурсларини шакллантиришдаги роли ва аҳамияти	87
Shohina Xujmaxmatovna Pirova Mamlakatimiz iqtisodiyotida ichimlik suvi ta'minoti xizmatlarining tutgan o'rni va ahamiyati	91
Ибодулла Хасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабоева Цифровой реинжиниринг бизнес-процессов в сервисных компаниях Узбекистана	95
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini baholash tizimi va innovatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatlari	99
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Елена Вячеславовна Гольшева Индикаторы устойчивого туризма как инструмент регионального развития (на примере Ферганской области)	102
To'liqin Saidahmedovich Sharipov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Turizm xizmatlari sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	110
Azizjon Shukrilloevich Berdimurodov Hududlarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmining tashkiliy va metodologik asoslari	114
Shuxratjon Sultonovich Sayfutdinov Turizmni barqaror rivojlantirishda blokcheyn texnologiyalarining innovatsion imkoniyatlari	118
Dostonbek Furqat o'g'li Tilovmurodov Surxondaryo viloyatida sarguzasht turizmi va speleoturizm faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari	122
Shohro' Baxtiyorovna Navruz-zoda Yoshlar turizmini rivojlantirishning konseptual asoslari	128
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Bekjon Nizom o'g'li Ismatillayev Turizm va mehmondo'stlik sohasida xalqaro standartlarni milliy tizimga uyg'unlashtirish masalalari	136
Йылмаз Улви Узун Влияние колебаний цен на нефть, глобальных торговых войн и прямых иностранных инвестиций на экономический рост страны	139
Askar Axrorovich Siddiqov Mehmonxona korxonalarini boshqarish shakli va asosiy yondashuvlar	147
Diyoira Farhod kizi Bahriddinova Innovative directions for the development of youth-oriented tourism and economic mathematical models for assessing the service potential of tourism enterprises	150
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Шохида Ильясовна Артикова, Дониёр Искандарович Насимов Поддержка и развитие малого бизнеса в сфере услуг в Республике Узбекистан: институциональные механизмы, динамика и перспективы	156

7. Miller, G.; Twining-Ward, L. Monitoring for a Sustainable Tourism Transition: The Challenge of Developing and Using Indicators. – Wallingford: CABI Publishing, 2005. – 264 p. DOI: 10.1079/9780851990220.0000.

8. Global Sustainable Tourism Council (GSTC). Global Sustainable Tourism Criteria for Destinations. – Version 2.0. – Washington, D.C.: GSTC, 2021. – [Электронный ресурс]. – URL: <https://www.gstcouncil.org> (дата обращения: 16.06.2025).

9. Ходжаев М., Исмаилов Р. Устойчивый туризм как фактор регионального развития // Экономика и туризм. – 2022. – № 4(58). – С. 45-51.

10. Ширинова М.М., Модели развития устойчивого туризма: международный опыт и возможности их применения в условиях Узбекистана // «Raqamli Iqtisodiyot» Ilmiy-Elektron Jurnal. – 2024 – №9. – С.185-189 [Электронный ресурс]. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/modeli-razvitiya-ustoychivogo-turizma-mezhdunarodnyy-opyt-i-vozmozhnosti-ih-primeneniya-v-usloviyah-uzbekistana> (дата обращения: 16.06.2025).

11. <https://sdg.openshkola.org>.

12. <https://ru.ferganatourism.uz>.

To‘lqin Saidahmedovich Sharipov – SamISI professor v.b., i.f.n.,
Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova – SamISI assistenti

TURIZM XIZMATLARI SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi globallashuv va raqobatbardosh iqtisodiy muhitda turizm xizmatlari sohasini jadal rivojlantirishning ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyati yoritib berilgan. Turizm sohasi mamlakatning yalpi ichki mahsulotini oshirish, bandlikni ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish va milliy madaniyatni targ'ib qilishda muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: turizm xizmatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, bandlik, investitsiya, infratuzilma, madaniy meros, iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish.

Kirish: XXI asrda turizm o'zining ko'p qirrali tarkibi, ko'plab yondosh sohalari bilan birga hamnafas rivojlanishga imkon berib, jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta'sir o'tkazib kelmoqda. Turizm rivojlanishi ortidan transport, aloqa, joylashtirish, umumiy ovqatlanish korxonalari, kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish, servis sohasi, savdo xizmatlari turizm industriyasini tashkil etib, o'z o'rnida sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bir qator sohalarni qamrab olgan. Turizm xizmatlari sohasi jahon iqtisodiyotining serdaromad, kam xarajat sohalaridan biri bo'lib, qudratli integratsion soha sifatida nafaqat ko'plab mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atidan tezroq rivojlanmoqda, balki xizmatlarning xalqaro eksportida ham uning ulushi oshib bormoqda. Halqaro tajriba turizm xizmatlarining roli uzluksiz o'sayotganligini ko'rsatadi. Bugungi kunga kelib, turizm sanoati jahon iqtisodiyotining eng yirik tarmoqlaridan biriga aylandi. Oxirgi o'ttiz yil ichida dunyo bo'ylab sayyohlar soni qariyb 4 barobar, turizmdan olingan daromad esa, 25 barobardan ziyod oshdi. Mazkur sektor yuqori rentabelli tarmoq bo'lib, investitsiya samaradorligi bo'yicha neft va gaz sanoati hamda avtomobilsozlik sanoati bilan taqqoslanadigan uchta yirik eksport tarmoqlaridan biri hisoblanadi, bundan tashqari, jahon eksportidagi ulushi, mos ravishda 11 foiz va 8,6 foizni tashkil qiladi[1]. Shu tariqa turizm nufuzining o'sib borishiga ko'ra jahon iqtisodiyotida drayver soha sifatidagi maqomi yanada ortib bormoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev Butun jahon turizm tashkiloti bosh assambleyasining 25-sessiyasidagi ma'ruzasida, turizm sohasining iqtisodiyotga ta'siri haqida to'xtalib, "Ko'plab davlatlar hozirgi murakkab vaziyatda o'z iqtisodiyotini tiklash va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda turizm sohasiga tayanmoqda. Global raqobat muhiti kuchaymoqda. Bu, albatta, bejiz emas: sohaga kiritilayotgan har bir dollar kelgusida 3-4 barobar daromad keltirishini barchangiz yaxshi bilasiz. Yaratilayotgan har bir yangi ish o'rni esa boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyini hosil qilishga imkon beradi. Shu ma'noda, turizm mamlakatlarimizning umumiy farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim omilidir, desak, mubolag'a bo'lmaydi" deb ta'kidladi[2]. Shu sababli ham dunyoda turizm xizmatlari bozorining ahamiyati doimiy ravishda oshib bormoqda, bu turizmning alohida mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Demak, turizm xizmatlari rivojlanishi mamlakat uchun valyuta tushumlari manbai va aholi bandligini ta'minlash vositasi, mamlakat to'lov balansi va yalpi milliy mahsulotining muhim

omili, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning zarur vositasi ekan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili: Turizm xizmatlari tushunchasi murakkab, ko‘pqirrali bo‘lib, so‘nggi yillarda chop etilayotgan ko‘pgina iqtisodiy adabiyotlarda va lug‘atlarda uning nazariy asoslari turlicha ta‘riflanmoqda. Jumladan, turizm xizmatlari - turistlarning ehtiyojlarini qondirish va ta‘minlashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami sifatidagi qarashlar ustun bo‘lgan holda, XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab ko‘proq aholiga sayohat va dam olishiga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoq haqidagi tasavvurlarga urg‘u berilmoqda.

Misol uchun Rossiyalik iqtisodchi - olimlar A.S.Kuskov va Yu.A. Djaladyan “Turizm asoslari” nomli darsligida “Turizmdagi xizmat - bu turizm kompaniyalarining turistik mahsulotni yaratishdagi faoliyatining asosiy qismi hamda natijasi” ekanligini ta‘kidlaydi[3].

L.V.Staxovaga ko‘ra, turizm xizmatlari - bozor segmenti sifatida, umumiy ovqatlanish, transport, mehmondo‘stlik industriyasi, savdo va madaniyat kabi xizmatlarni taklif qiluvchi turli tarmoqlarni birlashtiruvchi majmuadan iborat[4]. Turizm xizmatlari tushunchasiga M.B. Birjakov quyidagi ta‘rifni beradi: “Turistik xizmat - bu xizmat ko‘rsatish sohasida maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami bo‘lib, u sayyoh va ekskursantlarning ehtiyojlarini ta‘minlash va qondirishga qaratilgan, turizm maqsadlariga, turistik xizmatning xususiyatlariga va yo‘nalishiga mos keladi hamda umumiy insoniyat axloqi va tartib-qoidalariga zid bo‘lmaydi”[5]. Yuqorida keltirilgan mualliflar turizm xizmatlari ta‘rifiga mustaqil yondashib berilgan barcha ta‘riflar turlicha bo‘lishiga qaramay, o‘ziga xoslik va aniqliklar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur maqolada turizm xizmatlari sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tadqiq qilish asnosida tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy-tashkiliy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va mantiqiy fikrlash kabi usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar: Olimlarning fikr-mulohazalari va ilmiy izlanishlarini chuqur o‘rganish natijasida tahliliy jihatlar ham samarali amalga oshiriladi, bu esa tadqiqot ishining dolzarbligi hamda natijadorligini oshiradi. Turizm xizmatlari ko‘rsatishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida mamlakatimizda turizm xizmatlarning samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Turizm xizmatlarini tashkil qilishdagi qulaylik u yuqori darajadagi fan sig‘imi yuqori bo‘lgan texnologiyalarni talab qilmasligi, tadbirkorlik va kichik biznesni o‘ziga tez singdirishi tufayli jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ortib bormoqda. Turizm sohasi ishlab chiqarayotgan xizmatlar insonlarning asosiy ehtiyojlaridan biri bo‘lib, hozirgi texnika taraqqiyoti sharoitida, mehnat intensivligi natijasida vujudga keladigan his-hayajon va ruhiy salbiy ta‘sirlarni kamaytirishda yordam bermoqda.

Hozirgi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida turizm xizmatlari nafaqat iqtisodiyotning muhim tarmog‘i, balki ijtimoiy hayotning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan muhim qismi. Uning jamiyat taraqqiyotidagi muhim ahamiyati real hayyotda namayon bo‘lmoqda. Turizm xizmatlarining muhim ahamiyatini nafaqat qulay daromad manbai sifatida qarashimiz kerak, balki uning ijtimoiy-madaniy, ruhiy-siyosiy, gumanitar va ekologik ahamiyatlarini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

Turizm xizmatlari taklifi iqtisodiyotning moddiy ishlab chiqish sohalariga nisbatan tez tashkil qilinadigan va tez taraqqiy etadigan tarmoqdir, chunki turizm mamlakat uchun unchalik katta investisiya va vaqt talab qilmasdan rivojlanishi mumkin bo‘lgan sohadir. Aksincha turizmning faoliyat yuritishi, boshqa ko‘plab turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu soha bilan ko‘pgina xizmat ko‘rsatuvchi sohalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-biridan ajralmagan holda rivoj topadi.

Shuni ham qayd etish kerakki, keng ko‘lamli turizm xizmatlari rivojlanishining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta‘siri nafaqat valyuta tushumlari, yangi ish o‘rinlari yoki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi evaziga budjet tushumlarining ko‘payishi, balki ajdodlardan meros qolgan madaniyat va qadriyatlar tiklanishining bosh omilidir.

Chunki hozirgi paytda hunarmandchilik, zargarlik mahsulotlari, qadriyat va an‘analirimiz, urf-odatlarimiz, avlodan-avlodga o‘tib kelayotgan marosimlarimiz turistik resursga aylanmoqda va ko‘plab turistlarda qiziqish uyg‘otmoqda.

Turizm rivojlanishidagi hozirgi zamon tendensiyalari uning ham jahon iqtisodiyotiga ham alohida mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotiga ta'siri ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. Turizm aholining o'ziga hos ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirib milliy iqtisodiyotning yirik mustaqil sohasiga aylanib bormoqda.

Turizm mehnat ko'p talab qiladigan tarmoqlar safiga kiradi. Misol uchun, xorij tajribasidan ko'rinib turibdiki, mehnatga layoqatli aholining 10 foizi atrofida bo'lgan qismi turizm tarmog'ida band. Ularning deyarli yarmi mehmonxonalarda mehnat faoliyatini olib boradilar. O'rtacha xalqaro turizm sohasida 7 ta turistga 1 ta turistik xodim xizmat ko'rsatadi.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga (sanoat, qishloq xo'jaligi) nisbatan turizmda yangi texnologiyalar, informatsion dasturlarni qo'llash oqibatida keskin ravishda ishlovchilar soni kamayib ketmaydi. Holbuki, turizm xizmatlarining sifati ko'p jihatdan xizmat ko'rsatayotganlarning soniga bog'liq. Shu sababli turizm boshqa ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga nisbatan mehnat sig'imi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Mintaqada turizmni rivojlantirishga qaratilgan investitsion faollik yangi ish joylarini tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi[3].

Turizmning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotidagi ko'pgina yondosh sohalarning rivojlanishiga va aholi hayot darajasining sifat jihatdan yaxshilanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Turizm **birinchidan**, kamxarajat evaziga kichik tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirib, davlat budjetini soliq va boshqa tushumlar orqali boyitadi; **ikkinchidan**, turizm iste'mol talabining yangi shakllarini yaratadi. Turistlarning turli xil tovar va xizmatlarga bo'lgan talabi mahalliy sanoatning rivojlanishiga imkon beradi. Unga ko'ra, iste'mol mollarini ishlab chiqarish hajmi o'sadi; **uchinchidan**, turizm katta hajmdagi valyuta oqimini ta'minlaydi. Turistlar nafaqat turpaketlarni valyutada sotib olishadi, balki qo'shimcha xizmatlar uchun ham valyuta sarflashadi; **to'rtinchidan**, turistlar uchun infratuzilma yaxshilanadi. Bu obyektlardan nafaqat turistlar, balki mahalliy aholi ham foydalanadi; **beshinchidan**, turizm iqtisodiy xilma-xillikni ta'minlab, mamlakatning yagona ishlab chiqarishga qaramligini kamaytirish orqali iqtisodiy aktivlarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

Turizmning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini o'rganishda ikkita muhim jihatiga e'tibor qaratish lozim: birinchidan, turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqelik sifatida iqtisodiyotning deyarli barcha soha va tarmoqlariga, ularning holati va rivojlanish sur'atlariga bevosita va bilvosita, u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. U asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi, ularning dinamikasini belgilashda faol ishtirok etadi. Ikkinchidan, turizmning o'zi milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog'i va uning ajralmas tarkibiy qismi sifatida barcha tarmoq va sohalarning kuchli ta'siri ostida, ularning bevosita yordami vositasida amal qiladi va rivojlanadi, o'z oldida turgan maqsad va murakkab vazifalarni bajaradi[4].

Turizm xizmatlari sohasi kelajakda iqtisodiy o'sishga erishishning potentsial omili, imkoniyati hisoblanar ekan, undan unumli foydalanilganda va yuqori darajada rivojlangan sohaga ko'tarish orqali taraqqiyot manbaiga aylantirish mumkin bo'ladi.

Turistik iste'molning o'ziga xosligi shundaki, tovar iste'molchiga emas iste'molchi tovarga iste'molini amalga oshirish uchun keladi. Aynan iste'mol orqali turizm mamlakat yoki uning biror mintaqasi xo'jalik faoliyatini rag'batlantiradi. Mehmonxonalar, motellar, ovqatlanish korxonalarini, transport korxonalarini, sport inshootlari, madaniyat muassasalari daromadlarini oshiradi, maishiy xizmat ko'rsatish, aloqa, avtoxizmatlar va boshqalarning rivojlanishini rag'batlantiradi. Ushbu mintaqani reklama qiladigan mahalliy hunarmandlarning buyumlari, suvenirarga talab oshib boradi.

Ixtisoslashgan va umumiy savdo korxonalarining tovar aylanmasi o'sadi. Shunday qilib, turizm mahalliy infratuzilmani rivojlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi, mamlakatga valyuta tushumini faollashtiradi, davlat va mahalliy budjetga tushumlarni ta'minlaydi, xizmat ko'rsatuvchi sohalarga, turistik faoliyatga ko'maklashuvchi va hamrohlik qiluvchi faoliyat turlariga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli ham dunyoda turizm xizmatlari bozorining ahamiyati doimiy ravishda oshib bormoqda, bu turizmning alohida mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Demak, turizm xizmatlari rivojlanishi mamlakat uchun valyuta tushumlari manbai va aholi bandligini ta'minlash vositasi, mamlakat to'lov balansi va yalpi milliy mahsulotining muhim omili, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning zarur vositasi ekan.

Turizm xizmatlari sohasi kelajakda iqtisodiy o‘shishga erishishning potensial omili, imkoniyati hisoblanar ekan, undan unumli foydalanilganda va yuqori darajada rivojlangan sohaga ko‘tarish orqali taraqqiyot manbaiga aylantirish mumkin bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi omillar — ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli iqtisodiyot, xalqaro tashkilotlar, investitsiyalar va mehnat migratsiyasi — turizm xizmatlari sohasining jadal rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu omillar turizmning global iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlaydi, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlikni kengaytiradi hamda yangi imkoniyatlar yaratadi. Turizm sohasining shakllanishi va rivojlanishi uchun zamonaviy omillar, xususan, raqamli iqtisodiyotning kengayishi, global sarmoyalar oqimining oshishi, ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat masalalariga e’tibor qaratilishi nihoyatda zarurdir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosida onlayn bron tizimlari, virtual sayohatlar va raqamli to‘lov platformalarining rivojlanishi xalqaro turizm xizmatlarini yanada qulay va samarali shaklga keltirmoqda. Xalqaro savdo va investitsiyalar turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishda, yangi mehmonxonalar, transport va logistika tizimlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ilmiy-texnik taraqqiyot sayyohlik sohasida innovatsion xizmatlar — “aqli turizm”, ekologik turizm va madaniy merosni raqamlashtirish kabi yo‘nalishlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon turizm tashkiloti (UNWTO), Butunjahon savdo tashkiloti va boshqa iqtisodiy institutlar davlatlar o‘rtasida turizm siyosatini uyg‘unlashtirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hamda global turizm bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlashda faol ishtirok etmoqda. Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Turistik xizmatlar majmui turistik faoliyat subyektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama, madaniy-maishiy xizmatlar ko‘rsatish borasidagi shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi turizm tashkilotining mahsulidan iborat bo‘ladi.

- Turizm xizmatlari ehtiyojlarning qondirilishiga muvofiq ikkiga moddiy-maishiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlarga bo‘linadi. Moddiy-maishiy xizmatlar ko‘proq moddiy tavsifga, ijtimoiy-madaniy xizmatlar nomoddiy tavsifga ega bo‘ladi. Turizm xizmatlari iste’mol qilish nuqtayi nazaridan asosiy va qo‘shimcha xizmatlarga bo‘linadi. Asosiy xizmatlar turpaketga kiritiladi va puli oldindan to‘lanadi. Bunday xizmatlar tarkibiga ovqatlantirish, joylashtirish, tashish kabilar kiradi. Qo‘shimcha xizmatlarua sayohat davomida ehtiyoj paydo bo‘lishi mumkin. Bu kabi xizmatlar bevosita iste’mol jarayonida yuzaga keladi va bir-biridan farqlanadi.

- Turizm xizmatlar savdosi tovarlardan farq qilib, asosan ishlab chiqarish va iste’mol bir vaqtda yuz beradi, tovarga o‘xshab saqlab bo‘lmaydi yoki umumlashtirilib boshqa odamga sotib yuborib bo‘lmaydi. Shuning uchun xizmat ko‘rsatuvchi bilan iste’molchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotda bo‘ladilar.

- Turistik xizmatlarni buyurtma, yoxud mijoz borligida ko‘rsatish mumkinligi bois ularni xizmat ko‘rsatuvchidan ajratishning iloji yo‘q hamda iste’molchilarga ko‘pincha xizmatni taqdim etishning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Turistik xizmatlarning muhim xususiyati shundaki, ularni saqlab, qadoqlab, tashib bo‘lmaydi va ko‘rsatilayotgan xizmat bir vaqtning o‘zida iste’mol qilinadi. Ko‘rsatilayotgan xizmatlarning aksariyatini iste’mol qilgunga qadar o‘rganishning iloji yo‘q bo‘lib, ularning taklifi va iste’moli bir paytda ro‘y beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.T.Astanakulov. Turizm menejmenti. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Lesson press MCHJ” nashriyoti. 2023, 46 b.
2. Sh.M. Mirziyoev Ulkan sayyohlik salohiyatining yorqin e’tirofi //Xalq so‘zi gazetasi 2023-yil 17-oktabr, №220 (8563)
3. A.C. Кусков. Ю.А. Джаладян. Основы туризма : учебник. - М.: КНОРУС, 2008. – 316 с. (400 с.)
4. Л. В Стахова. Основы туризма : учебник для вузов. - М.: Издательство Юрайт, 2022. -8 с. (327)
5. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Издание 9-е, переработанное и дополненное. – СПб.: «Издательский дом Герда», 2007.- 576 с.
6. G.R. Xidirova, F.M. Raxmatullayeva. Mintaqaviy turizm: o‘quv qo‘llanma - Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 28 b.
7. Z.M. Muxammedova Turizmدا investitsiyalar. Monografiya Samarqand.: “SamDCHTI” nashriyoti, 2021. - B 44.

<p>Т.Шарипов, М.Умирзокова Социально-экономическое значение развития сферы туристских услуг</p>	<p>T.Sharipov, M.Umirzoqova Socio-economic importance of tourism services development</p>
<p>Аннотация. В данной статье освещена социальная и экономическая значимость ускоренного развития сферы туристических услуг в современной глобализации и конкурентной экономической среде. Сфера туризма играет важную роль в повышении валового внутреннего продукта страны, обеспечении занятости, развитии инфраструктуры и пропаганде национальной культуры.</p> <p>Ключевые слова: туристические услуги, социально-экономическое развитие, занятость, инвестиции, инфраструктура, культурное наследие, экономический рост, территориальное развитие.</p>	<p>Abstract. This article highlights the social and economic significance of the accelerated development of tourism services in the modern globalization and competitive economic environment. The tourism sector plays an important role in increasing the country's gross domestic product, providing employment, developing infrastructure and promoting national culture.</p> <p>Keywords: tourism services, socio-economic development, employment, investment, infrastructure, cultural heritage, economic growth, territorial development.</p>

Azizjon Shukrilloevich Berdimurodov – SamISI turizm kafedrası professori v.b., PhD

**HUDUDLARDA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH
 MEXANIZMINING TASHKILY VA METODOLOGIK ASOSLARI**

<p>Annotatsiya. Maqolada turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmlarining tashkiliy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlari empirik modellashtirilgan hamda turizmning iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti va barqarorlik indeksi orqali baholash modeli ishlab chiqilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: barqaror turizm, investitsion faollik, davlat-xususiy sherikchilik, klasterli boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik, yashil texnologiya, turizm indeksi.</p>

Kirish. Turizm sohasining jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora ortib borayotgan bir sharoitda, uning barqaror rivojlanib borishini ta’minlash masalasi ham yuzaga chiqib kelmoqda. UNWTOning ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda global sayyohlik daromadi 1 400 mlrd AQSh dollarga yaqinlashgan bo‘lsa, ayni paytda sayohat va dam olish bilan bog‘liq faoliyatlar jahon bo‘yicha energetik iste’mol, chiqindilar hosil bo‘lishi va tabiiy manbalarga bosimni oshirmoqda¹. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, turizmni rivojlantirishda nafaqat uning ulushini oshirish, balki barqarorlashtirish tamoyili ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida hududiy iqtisodiy rivojlanishga katta e’tibor qaratgan davlat sifatida, turizmni diversifikatsiya qilish, xizmatlar sektorini kengaytirish va hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish maqsadida qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni² turizm sohasida xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish yo‘nalishlarini belgilaydi. Shu bilan birga, mamlakatimizda turizm sohasini iqtisodiyotning muhim strategik tarmog‘i sifatida yanada rivojlantirish, sayyohlar oqimini keskin oshirish, yangi turizm obyektlarini tashkil etish, sohadagi tadbirkorlarni qo‘shimcha ravishda qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda barqaror turizmni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87 son Farmoni qabul qilindi³.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, turizmning hududlarda barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun an’anaviy infratuzilmaviy yondashuvlardan tashqari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, ya’ni investitsiyalar, xizmatlar sifati, hududiy boshqaruv va barqarorlik indekslari tizimi keng qo‘llanilishi lozim. Hududlar kesimida turizm salohiyati, sarmoya faolligi, xizmatlar strukturasi raqobatbardoshligi va barqarorlik holati o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlikni metodologik jihatdan tahlil qilish zarur.

¹ UNWTO World Tourism Barometer - November 2023, EXCERPT,

https://tourismanalytics.com/uploads/1/2/0/4/120443739/unwto_barometer_november_2023.pdf?utm_source

² Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 08.08.2025-y., 06/25/126/0704-son

³ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.